

Date: 1st April-2025

**ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGI**

Gaziyeva Gavhar Tolqinjonovna

Respublika imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikum ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarining mustaqil fikrlash, estetik tafakkur va badiiy asarlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada "aqliy hujum", "klaster", "insert", "debate", "rolga kirish", "sinkveyn" kabi metodlar misolida adabiyot darslarini jonlantirish, o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va shaxsiy faolligini rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, metodlarning amaliy samarasiga urg'u berilib, dars jarayonida ularni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, adabiyot darsi, aqliy hujum, dramatizatsiya, matn tahlili, mustaqil fikrlash, o'quvchi faolligi, badiiy tafakkur, ta'lim texnologiyalari, estetik tarbiya.

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida ta'lim tizimi jamiyatning barcha sohalarida yuz berayotgan tub o'zgarishlarga moslashmoqda. Xususan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchilarining faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashi, hayotga moslashuvchanligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo'ymoqda. An'anaviy dars shakllaridan farqli o'laroq, bugungi kun ta'limi – bu o'quvchining dars jarayonida faol ishtirokchi bo'lishini ta'minlaydigan, interfaol muloqotga asoslangan pedagogik modelga asoslanadi.

Ta'limda bu kabi yangicha yondashuvlar ayniqsa adabiyot fani uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi, adabiyot – bu shunchaki faktlar majmuasi emas, balki shaxsda badiiy-estetik didni shakllantiruvchi, axloqiy-me'yoriy qarashlarni barqarorlashtiruvchi, ijtimoiy hayotga nisbatan ongli yondashuvni o'rgatuvchi noyob vositadir. Adabiyot darslarining samaradorligini oshirish esa bevosita o'quvchining darsdagi ishtirokiga, uning matnga bo'lgan munosabati va faolligiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, interfaol o'qitish metodlari adabiyot darslarining mazmunini chuqurlashtirishda va ularni hayotiylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, interfaol metodlar imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishslashda ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday o'quvchilarining ehtiyojlari, idrok darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan interfaol darslar, ularni jamiyatga moslashuvchan, mustaqil fikrlovchi va faol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar moslashuvchanligi, turli sensor va kommunikativ vositalar bilan uyg'unlashtirilishi orqali nogironligi bo'lgan o'quvchilar ham teng huquqli ishtirokchi sifatida dars jarayoniga jalb qilinadi.

Date: 1st April-2025



Masalan, eshitish imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun vizual materiallar va yozma topshiriqlarga urg‘u berilsa, harakatida muammosi bo‘lgan o‘quvchilar uchun guruhlarda ishlashda maxsus rollar ajratilishi mumkin. Nutq rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar esa sinkveyn, rasm asosida hikoya tuzish, yozma bahs-munozaralarda qatnashish orqali o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy faolligini rag‘batlantiradi va ijtimoiy inklyuziyani ta’minlaydi.

Shunday qilib, adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat ta’lim sifati, balki imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijtimoiy-madaniy moslashuvi va inklyuziv jamiyatda o‘z o‘rnini topishida ham muhim omil hisoblanadi.

Interfaol metodlar, odatda, o‘quvchining erkin fikrlashini, muammoga o‘z nuqtayi nazaridan yondashishini, matn bilan ishlash jarayonida ijtimoiy va shaxsiy pozitsiyasini ifoda etishini talab qiladi. Bunday usullar yordamida o‘quvchilar o‘z fikrini asoslab berish, obrazlar bilan ishlash, matnni mantiqan tahlil qilish, hayotiy xulosalar chiqarish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Natijada, adabiyot fani orqali nafaqat bilim, balki tarbiya, did, estetik tafakkur, nutq madaniyati va ongli dunyoqarash shakllanadi.

Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish, avvalo, o‘quvchilarning ongli ishtirokini ta’minlash, ularni matn ustida mustaqil fikrlashga undash, o‘z munosabatini bildirishga o‘rgatish, tahliliy va estetik tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar nafaqat bilim olish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiylarini shakllantirishga yordam beradi.

Quyida adabiyot darslarida keng qo‘llaniladigan va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan ba’zi interfaol metodlar va ularning ta’lim jarayonidagi roli haqida batafsil to‘xtalamiz:

“Aqliy hujum” (Brainstorming) usuli. Ushbu metod o‘quvchilarda erkin fikrlashni rag‘batlantiradi. Masalan, Erkin Vohidovning she’riyati o‘rganilayotganda: “Vatan mavzusining Erkin Vohidov she’rlarida qanday aks etgan?” degan savol asosida o‘quvchilar o‘z fikrlarini tez va erkin bildirishadi. Bu metod o‘quvchilarning mavzuga kirib borishini osonlashtiradi, faoliyatni jonlantiradi.

“Klaster” metodi. Bu metod vositasida adabiy matndagi asosiy g‘oya ni aniqlash va unga bog‘liq fikrlarni tarmoqlantirish orqali o‘quvchilar matn strukturasi bilan ishlashni o‘rganadilar. Masalan, O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida asosiy g‘oya safatida “urush fojeasi” markazga qo‘yiladi va unga bog‘liq tarmoqlar: “yetimlik”, “ko‘z yosh”, “insoniylik”, “xotira” kabi tushunchalar shakllantiriladi.

“Insert” texnologiyasi. O‘quvchilarning matn ustida faol fikrlashini kuchaytirish maqsadida qo‘llaniladigan samarali metodlardan biri. Matn o‘qilayotganda o‘quvchi uni belgilari bilan kodlaydi:

- “+” – bu menga tanish,
- “_” – bunga qarshiman,
- “?” – bu menga tushunarsiz,
- “!” – bu qiziqarli.

Date: 1st April-2025

Bu orqali o‘quvchi matnga ongli yondashadi va keyinchalik shu belgilar asosida matn tahlil qilinadi. Ustoz bu belgilar asosida bahs, savol-javob yoki kichik guruhli tahlil mashg‘ulotlarini tashkil qilishi mumkin.

Rolga kirish va dramatizatsiya. Adabiyot darslarini hayotiylashtirishda bu metod juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan sahnalarni jonli tarzda sahnalashtirish orqali o‘quvchilar obrazlar ruhiy olamini chuqurroq anglaydilar, dramatik to‘qnashuvlarni his qilishadi. Dramatizatsiya – bu darsni estetik zavq manbaiga aylantiradigan, adabiy asarga bo‘lgan hissiy munosabatni kuchaytiradigan samarali vosita.

“Debat” yoki bahs-munozara metodlari. O‘quvchilarni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror chiqarishga o‘rgatadi. Masalan, asardagi qahramonning harakatini “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” deb guruhlarga bo‘lingan holda muhokama qilish, ularning nutq madaniyatini, mantiqiy fikrlashini va dalil keltirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar faqat faktlar emas, balki baholash asosida fikr yuritishga o‘rgatiladi.

“Sinkveyn” – qisqa she’r yaratish metodi. Besh satrdan iborat she’r tuzish orqali o‘quvchi matndagi qahramon, holat yoki g‘oya haqida fikr bildiradi. Bu metod adabiyot darsida ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi. Masalan, “Otajon” so‘ziga sinkveyn yozish:

- 1-satrdan – bitta so‘z (Otajon),
- 2-satrdan – ikki ta’riflovchi sifat,
- 3-satrdan – uchta harakatni bildiruvchi fe’l,
- 4-satrdan – bir gaplik izoh,
- 5-satrdan – sinonim.

Bu metod o‘quvchilarda chuqur va obrazli fikr yuritish ko‘nikmasini shakllantiradi.

“Savol-javobli doira” (Fishbowl) usuli. Sinfdan 3–5 o‘quvchi doira markaziga chiqadi, ular matn yuzasidan savollarga javob beradi yoki muammoli vaziyatni muhokama qiladi. Boshqalar esa tashqaridan kuzatadi. Keyin guruhlar almashadi. Bu metod darsga barcha o‘quvchilarning jalb etilishini ta’minlaydi, o‘z fikrini omma oldida ifoda etish, tanqidiy yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jamoaviy tahlil va grafik organizatorlar. Grafik vositalar (kontsept xaritalar, diagrammalar) yordamida asar syujeti, obrazlararo bog‘liqlik, xulosa va g‘oyalar tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi. Masalan, “Layli va Majnun” dostonida har bir obraz alohida tahlil qilinadi va ularning bir-biriga nisbatan munosabatlari grafik shaklida ifodalanadi.

Bu metodlar amaliyotda ko‘plab o‘qituvchilar tomonidan sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, ularning samaradorligi bir necha jihatlarda namoyon bo‘ladi:

O‘quvchilar badiiy matnni faqat eslab qolmaydi, balki tahlil qiladi, his qiladi, o‘z pozitsiyasini bildira oladi. Passiv o‘quvchilar ham jarayonga jalb qilinadi.

Asarlar hayotiylik kasb etadi, o‘quvchilar o‘z shaxsiy tajribasi bilan taqqoslaydi.

Mustaqil, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllanadi. O‘quvchilar orasida muloqot madaniyati, guruhda ishlash, o‘z fikrini dalillar bilan isbotlash kabi ijtimoiy kompetensiyalar shakllanadi. Shunday qilib, interfaol metodlar adabiyot darslarining ruhini

Date: 1st April-2025

yangilaydi, o‘quvchini matn markaziga qo‘yadi va ta’limni chinakam ma’noda shaxsga yo‘naltirilgan shaklga olib chiqadi.

Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faqatgina asar mazmunini o‘zlashtirib qolmay, balki uni tahlil qilish, obrazlarni tushunish, muallif g‘oyasini anglash, voqelikni baholash, o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabiga ko‘ra, har bir darsda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ustuvor maqsad sifatida qaraladi. Ayniqsa, adabiyot fanida bu talab ikki karra dolzarb bo‘lib, interfaol metodlar bu yo‘nalishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlardan samarali foydalanilgan sinflarda:

- o‘quvchilarning o‘z fikrini bildirishi va baholash faolligi ortadi,
- ijodiy tafakkur va estetik did shakllanadi,
- adabiyotga nisbatan ongli va hissiy yondashuv mustahkamlanadi.

Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metodlar orqali o‘quvchilar faqatgina asar mazmunini o‘zlashtirib qolmay, balki uni tahlil qilish, obrazlarni tushunish, muallif g‘oyasini anglash, voqelikni baholash, o‘z fikrini erkin va asosli ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar talabiga ko‘ra, har bir darsda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish, uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ustuvor maqsad sifatida qaraladi. Ayniqsa, adabiyot fanida bu talab ikki karra dolzarb bo‘lib, interfaol metodlar bu yo‘nalishda kuchli vosita sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, interfaol metodlar imkoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan ishlashda ham o‘zining inklyuziv ta’limdagi ahamiyatini namoyon qiladi. Bunday o‘quvchilar uchun darslar moslashtirilgan shaklda, individual yondashuv asosida tashkil etilganda, ular ham adabiy matnni anglaydi, fikr bildiradi va darsning teng huquqli ishtirokchisiga aylanadi. Interfaol metodlar orqali har bir o‘quvchi – imkoniyatidan qat’i nazar – o‘z salohiyatini namoyon qilish, ijodiy fikrlash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniga ega bo‘ladi.

Shu bois, har bir adabiyot o‘qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur o‘rganib, ularni dars jarayoniga ijodkorlik va inklyuziv yondashuv bilan integratsiya etishi lozim. Interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarda o‘zgacha ruh, fikrlash kengligi va badiiy dunyoqarash hosil qiladi. Bu esa o‘z navbatida, har tomonlama yetuk, ma’naviy boy, teng imkoniyatli jamiyat fuqarolarini tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tojiboyeva Z. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.
2. G‘ofurov A. O‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 265 b.

Date: 1st April-2025

3. Qurbonova M. Adabiyot darslarida interfaol usullardan foydalanish yo'llari // Metodik maslahat, 2021, №5. – B. 21–23.
4. Yusupov A. Interfaol o'qitish metodlari va ularni amaliyotga joriy etish // Ta'lim innovatsiyalari jurnali, 2020, №3. – B. 45–49.
5. Karimov B. Interfaol metodlar asosida dars tashkil etishning samaradorligi // O'zbek tili va adabiyoti, 2019, №2. – B. 34–37.
6. Ibragimova N. Zamonaviy darsda interfaol metodlar. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2019. – 148 b.
7. Normatova D. O'rta ta'limda adabiyot fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar. – Buxoro: Ilm Ziyo, 2020. – 112 b.
8. Mavlonova R. Adabiy ta'limda kommunikativ yondashuv. – Toshkent: Ilm va taraqqiyot, 2021. – 135 b.